

## **Biznes-rejaga muvofiq 2019 yilda rivojlanishning asosiy yo'nalishlari (Bank Kengashi tomonidan 2018 yil 27 noyabrda tasdiqlangan)**

Bank o'z faoliyatini amalga oshirishda bank aksiyadorlari va mijozlarining manfaatlaridan kelib chiqib ish yuritadi.

Bankning asosiy strategik maqsadlari:

- foyda olish;
- xatarlarni kamaytirish;
- bank faoliyatining samaradorligini oshirish;
- bankning benuqson ishbilarmonlik obro'sini saqlagan holda uning faoliyati oshkoraligini oshirish.

Bugungi sharoitda Bank quyidagi masalalarni hal qiladi:

- moliyaviy xizmatlar bozorida bank nufuzini mustahkamlash;
- bank kapitalini oshirish;
- bank tarmoq bo'linmalari ish samaradorligini oshirish;
- har bir mijozga alohida yondashuv va standart texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda, mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini takomillashtirish;
- bankka eng yaxshi mijozlarni mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ular bilan uzoq muddat o'zaro hamkorlikni rivojlantirish;
- aktivlar va passivlar tuzilmasini muvozanat holatda ushlab turish va boshqarish;
- ichki nazorat tizimini o'z ichiga olgan xatarlarni boshqarish to'liq funksional tizimining samarali faoliyatini ta'minlash;
- korporativ boshqaruv va vakolatlar taqsimlanishining optimal tizimiga tayangan holda bank boshqaruvi sistemasining moslashuvchanligini ta'minlash, qarorlar qabul qilish va amalga oshirilayotgan operatsiyalar sifatini yaxshilash maqsadida xodimlar ishini to'g'ri tashkil etish va bankni boshqarish usullarini takomillashtirish;
- bank hodimlari mehnat unumdorligi, sifati va samaradorligini oshirish.

Jalb qilingan resurslar xajmini ko'paytirish maqsadida Bank aholining turli qatlamlariga yangi turdagi jozibador qo'yilmalarni taklif qiladi, mijozlarning mablag'larini bankdagi depozit hisoblariga joylashtirish ishlarini davom ettiradi, bank taklif etayotgan xizmatlar va qonun talablariga muvofiq bank to'g'risida oshkor qilinishi shart bo'lgan ma'lumotlar haqida xabardor qiladi.

Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bu kredit portfeli sifatini yaxshilash natijasida kredit operatsiyalarini kengaytirish hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda Bank barcha imkoniyatlarini kredit berilishidan oldin kredit ta'minoti va qarz oluvchining moliyaviy holatini astoyidil o'rganish, kredit shartnomasi amal qilish muddati davomida berilgan kreditlarning monitoringini olib borish va kredit ta'minoti sifatida faqat mijoz o'zida olib qolishga intiladigan yuqori likvidli mol-mulklarni qabul qilishga qaratadi.

Bankning boshqa muhim yo'nalishlaridan biri bu avvalambor ma'muriy-boshqaruv xarajatlarini o'z ichiga olgan foizsiz harajatlarni maksimal darajada qisqartirilishi va foizsiz daromadlar miqdorini oshirilishi hisoblanadi.